

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

13.00.00 – Pedagogika fanlari ixtisosliklari bo'yicha "Mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasi" fanidan qo'shimcha malakaviy imtihon

DASTURI

NAMANGAN - 2023

ANNOTATSIYA

Mazkur dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-son Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli, 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli farmonlari hamda 2020-yil 27-fevraldagi “Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4623-sonli va 2022-yil 21-iyundagi “Pedagogik ta’lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi Oliy ta’lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-289-sonli qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 1059-sonli va 2017-yil 22-maydagi “Oliy ta’limdan keyingi ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 304-sonli qarorlarida belgilangan vazifalarning ijrosini ta’minalash maqsadida 13.00.00 - pedagogika sohasi bo‘yicha talabgorlar uchun tuzildi.

Ushbu malakaviy imtihon dasturi Namangan davlat universitetining ilmiy-muvofiqlashtiruvchi kengashida ko‘rib chiqilgan va tavsiya etilgan. (2024-yil ____-yanvardagi 1-sonli bayonnomma)

Tuzuvchilar:

p. f.d.prof. O‘.Asqarova

p. f.d., prof. Sh.Xo‘jamberdiyeva

Taqrizchi:

p. f.n., dots. M.Nishonov

PhD, dots. M.Asranboyeva

KIRISH

Ushbu dastur pedagogika fanlarning metodologiyasi, maxsus pedagogika, pedagogika nazariyasi va tarixi, tarbiyaviy ishlar metodikasi, mutaxassislik fanlarini o‘qitish metodkasi fanlarning namunaviy dasturlari asosida tuzildi.

Dasturning maqsadi – izlanuvchilarni fanni o‘qitishdan maqsad talabgorlarni pedagogika o‘qitish metodologiyasiga oid bilim ko‘nikma va malakalar bilan qurollantirish.

Dasturning vazifasi – tadqiqotchilarni pedagogika fanini o‘qitish metodikasining nazariy asoslariga oid bilimlar bilan qurollantirish; metodik jixatdan pedagogik jarayonlanni samarali tashkil etish uchun zarur ko‘nikmalarni egallash; pedagogik fanlarni o‘ziga xosliklarni hisobga olgan holda ta’lim va tarbiyaning zamonaviy usullarini texnologiyalarni keng doirada qullay olishga yo‘naltirish pedagogik faoliyatini amalga oshirishda ijodiy va metodik savodxonlikka tayyorlashni shakillantirishdan iborat.

Dastur bo‘yicha talabgorlarning bilim, ko‘nikma va malakasiga qo‘yiladigan talablar:

“Pedagogik fanlarini o‘qitish metodikasi” o‘quv fanini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:

- mutaxassislik fanlarini o‘qitish metodikaning predmeti, maqsad va vazifalari; ta’lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari va strategiyasi; mutaxassislik fanlarining mazmuni va ilmiy asoslari, uning kategoriya va tamoyillari; o‘quv jarayonini tashkil etish shakllari va metodlariga qo‘yilayotgan zamonaviy talablar; mutaxassislik fanlarini o‘qitish metodlarining tasnifi va asosiy jihatlari; o‘qitish tamoyillari; dars o‘quv faoliyatini tashkil etish sharti sifatida; o‘quv faoliyatini tashkil etish shakllari; ma’ruza mashg‘uloti va uning mazmuni; ma’ruza o‘qishga qo‘yiladigan talablar; seminar mashg‘ulotining mohiyati va turlari; o‘qitish metodikasi ***tasavvurga ega bo‘lishi***;

- pedagogika fanlari mazmunini tanlab olish tamoyil va mezonlarini; pedagogik fanlar mazmunini belgilovchi me’yoriy hujjatlarni; mutaxassislik fanlarini o‘qitish metodlari tasnifini; o‘qitishning texnik vositalari va axborot texnologiyalarda amaliy ishlashni; zamonaviy pedagogik fan yutuqlari va ilg‘or pedagogik tajribalardan amaliy foydalanib, mustaqil bilim olishni; o‘quvchilami shaxsiy va yosh xususiyatlarini hisobga olish, auditoriya bilan o‘zaro aloqalar taktikasini o‘matish va psixologik to‘g‘ri munosabatlami boshqarishni bilishni; ta’lim standartlarining yangi talablarini va o‘zining ehtiyojlari bilan bog‘liqlikda o‘qitish va ta’lim olganlikni tashxis etishning turli usul va vositalaridan samarali foydalanish hamda mutaxassislik fanlarini o‘rganishda o‘quv mashg‘ulotlari taksonomiyasini; o‘qitishning ta’limiy metodlarini; o‘qitishning interfaol usullarini; dasturlashtirilganta’limni; pedagogika va методик fanlardan bilimlami nazorat qilish vabaholashni tashkil qilishni ***bilishi va ulardan foydalana olishi***;

- bilimni diagnostika hamda nazorat qilishning turli vositalari va usullaridan samarali foydalanish; ta’lim standartlarining yangi talablariga mos ravishda mustaqil yangi o‘qitish usullami yaratish; ilg‘or pedagogik tajribalar va pedagogika fanining zamonaviy yutuqlaridan foydalangan holda ta’lim berish; individual,

shaxsiy vayoshga oid o‘ziga xosliklami hisobga olgan holda auditoriya bilan psixologik asosli muloqot va o‘zaro harakatni tashkil etish; mutaxassislik fanlarini o‘qitishda nazorat turlari, baholash tamoyillarini qo‘llay olish; pedagogika va psixologiyani o‘qitishda bilimlarni nazorat qilishda amaliy topshiriqlarni bajarish; talaba mutaxassislik fanlarini o‘qitishning metodik xususiyatlari, o‘rta maxsus va oliy ta’limda mutaxassislik fanlarini o‘qitishning o‘ziga xosligi, dars jarayonida metodlarni qo‘llash, talabalarni mustaqil faoliyatlarini tashkil qilish; pedagogika va mutaxassislik fanlarini o‘qitishda bilimlarni nazorat qilish shakllarini qo‘llash **ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak.**

Dasturni amalga oshirish o‘quv rejasida rejajashtirilgan gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy (falsafa (etika, estetika, mantiq)), matematik va tabiiy (yosh fiziologiyasi va gigiena), umumkasbiy (pedagogika nazariyasi, pedagogika fanlarini o‘qitish metodikasi, pedagogik mahorat) fanlari bilan o‘zaro aloqada olib boriladi.

Mutaxassislik fanlarini o‘qitish metodikasi talabgorning umumpedagogik bilim darajasini, pedagogik merosimizga xurmat bilan munosabatda bo‘lishini aniqlaydi. Ta’lim va tarbiya nazariyasi va amaliyoti, tarbiya va ta’lim, uning rivojlanish jarayoni jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va xar bir tarixiy bosqichda ilmiy bilimlar darajasi bilan bog‘liqligi to‘g‘risida aniq tasavvur hosil qiladi. Bunda pedagogikaning ijtimoiy taraqqiyot talabiga javob bergenligi, ilmiy taraqqiyot bir butun tarbiya nazariyasi va amaliyot ekani hisobga olingan. Ta’lim amaliyoti, shuningdek, ta’limdagi yutuqlarning muhimligi ham nazarda tutiladi. U yoki bu pedagogik konsepsiylar, ta’limotlarni tavsiflaganda shu ta’limotlar ijodkorining hayoti va faoliyatidagi eng muxim voqealarni asos qilib olish nazarda tutilgan. Pedagogik ta’limotlar tarixi qismi pedagogika tarixini kishilik jamiyatining taraqqiyoti tarixi bilan uzviy aloqada bayon etishga mo‘ljallangan. Pedagogik fikr rivojlanishini izchil o‘rganish bo‘lajak mutaxassislarga hozirgi davrda o‘tmishning ilg‘or pedagogikasining uzviy davomi ekanligini ko‘rsatish kelajak maorif va pedagogika taraqqiyoti yo‘nalishlarini anglab olishga yordam beradi.

Mazkur dastur 13.00.02 - “Ta’lim-tarbiya nazariyasi va metodikasi” yo‘nalishi bo‘yicha talabgorlar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, unga mutaxassislik bo‘yicha o‘qitiladigan fanlarning namunaviy dasturlari asos qilib olingan.

Talabgorning umumiyligi pedagogika, pedagogika va ta’lim tarixi, pedagogika fanlarning metodologiyasi, maxsus pedagogika, pedagogika nazariyasi va tarixi, tarbiyaviy ishlar metodikasi, mutaxassislik fanlarini o‘qitish metodkasi fanlaridan o‘rganilishi zarur bo‘lgan minimum bilimlar mazmuni:

O‘zbekiston Respublikasining ta’lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari. Ta’lim tizimi va turlari. Demokratik jamiyatda pedagoglik kasbi. O‘qituvchi shaxsiga qo‘yilgan talablar. Ilmiy va ilmiy-texnik faoliyatni rag‘batlantirish, ilmiy-tadqiqotchilik kompetentligi, ilmiy manbaalarni tahlil qilish metodlari: ilmiy bilish metodlari; induksiya, deduksiya, analogiya; pedagogik kompetentlik, ya’ni ta’lim-tarbiya jarayonida qo‘llaniladigan o‘qitish shakllari, metodlari hamda vositalari; ta’lim mazmuni, metodlari, vositalari va shakllarining uzviyligini ta’minlashni bilish, mashg‘ulot olib boriladigan fanning maqsadi, vazifalari, predmeti va ob’ekti, fanning ishlab chiqarishdagi o‘rni va ahamiyati; fan

taraqqiyotining axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga bog'liqligi; foydalanimadigan asosiy darsliklar, o'quv qo'llanmalar va elektron adabiyotlar; fan mazmunini ishlab chiqishda o'quv rejasidagi boshqa fanlar bilan gorizontal va vertikal uzviylikning ta'minlanishini baholash; fanning istiqboldagi taraqqiy etishi muammolari va ularning yechimlari haqida bilim va layoqatga egalik.

Pedagogika nazariyasi. Sharq va G'arb mutafakkirlarining gnoseologik g'oyalari ta'lim jarayoni asosi sifatida. Ta'lim mazmunini tashkil etish konsepsiysi. Zamonaviy didaktikada ta'lim metodlari tasnifiga turlicha yondashuvlar. Ta'lim mazmunini belgilovchi me'riy hujjatlar, o'quv reja, o'quv dasturi. Darslik va o'quv qo'llanmalar. Ta'lim metodlari va usullari tushunchalari. Ta'lim metodlarining funksiyalari. Ta'lim metodlarini tanlab olish shartlari. Dars-ta'limni tashkil etishning asosiy shakli. Darsning turlari va tuzilishi. Ta'limni tashkil etishning yordamchi shakllari. Ta'lim olganlikni tashxis etishning mohiyati. Xalqaro baholash dasturlari. Ta'lim va tarbiyaning o'ziga xos xususiyatlari, birligi, differensiyasi, yagona pedagogik jarayon. Ilg'or pedagogik qarashlar. Jahon ta'lim tizimi. Pedagogik jarayondagi integratsiyalar. Ta'lim nazariyasi (didaktika)ning asosiy komponentlari: konsepsiyalari, paradigmalari. Ta'lim prinsiplari. Ta'lim metodlari, texnologiyalari. Ta'lim turlari va bosqichlari. Tarbiya metodlari mohiyati va uning tasnifi. Sharq mutafakkirlarining axloqiy qarashlar. Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan davlat ta'lim standarti. Darslikdagi o'quv materiallarini tizimlashtirish tamoyillari. O'qitish metodlarini o'rganishga funksional yondashuv. O'qitish metodlari klassifikatsiyasiga qo'yilgan asosiy talablar. Ta'lim olganlikni tashxis etishning mohiyati. Ijtimoiy ongi shakllantirish metodlari. Inklyuziv ta'lim tamoyillari. Inklyuziv ta'lim sharoitida tyutorlik amaliyotini tashkil etish. Xalqaro loyixalar va ta'lim dasturlari. Ta'lim jarayonining umumiy va xususiy qonuniyatlar. Interfaol ta'lim metodlari. Ta'limni tashkil qilishning noan'anaviy shakllari. Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlar. Jahonning iqtisodiy rivojlangan davlatlarida ta'lim siyosati. Ilmiy-pedagogik tadqiqotlarni tashkil etish va o'tkazish. Shaxs rivojlanishining yosh va psixologik xususiyatlari. O'quvchilarining bilish faoliyati va uning tuzilishi. Didaktikaning maqsad va vazifalari. Yaxlit pedagogik jarayon tushunchasi va uning tuzilishi. Pedagogika fani va uning asosiy kategoriyalari. Pedagogika fanining paydo bo'lishi va rivojlanishi. Ilg'or pedagogik tajribalarni umumlashtirish va amaliyotga joriy etish. Faoliyat rivojlanish omili. Shaxsning ijtimoiylashuvi. Yaxlit pedagogik jarayonning ichki qonuniyatlar. Yaxlit pedagogik jarayon bosqichlari. Yaxlit pedagogik jarayonni jadallashtirish. Yaxlit pedagogik jarayonni optimallashtirish. Pedagogik jarayonni harakantiruvchi kuchlar. Xususiy didaktika. Didaktika, uning asosiy kategoriyalari. Zamonaviy didaktik tizim. Bilish jarayonining dialektikasi. Ta'limni tashkil etish shakllari va ularning didaktikada rivojlanishi. Darsga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tish. STEAM ta'lim tizim. Integratsiyalashgan ta'lim. Tarbiya jarayonining o'ziga xos xususiyatlari. O'quvchilar jamoasining rivojlanish darjasini va bosqichlari. Tarbiya metodlari tasnifi. Ma'naviy-axloqiy tarbiya shakl va metodlari. Axborot iste'moli madaniyati: mazmuni va mohiyati. O'quvchilarda axborot iste'moli madaniyatini shakllantirish texnologiyasi. Xalqaro baholash dasturlarining me'yoriy asoslari

PISA - xalqaro dasturi. Boshqaruv metodlari. Pedagogika fanining metodologiyasi

Shaxsning obyektdan subyektga aylanish jarayoni. Fikrlash va uning turlari. Mehnat tarbiyasining mazmuni va metodlari. Iqtisodiy tarbiya mehnat tarbiyasining tarkibiy qismi sifatida. O‘quvchilarni axloqiy tarbiyalashning shakl, metod va vositalari. Estetik tarbiyaning mazmuni, shakl va metodlari. O‘quvchilarda ekologik tarbiyani shakllantirish. Jismoniy tarbiyaning mazmuni, shakl va metodlari. Ta’lim jarayonini metodik boshqarish nazariyasi va amaliyoti. Yaponiya ta’lim tizimi. Germaniya ta’lim tizimi. AQSH ta’lim tizimining yetakchi an’analari.

Dasturlashtirilgan ta’lim nazariyasi. Bilishning bixevieristik nazariyasi. Falsafiy antropologiyaning mohiyati va uning ma’rifat uchun ahamiyati. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’limda o‘qituvchilarva ta’lim oluvchilar o‘rtasidagi muloqotining o‘ziga xos tabiat. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ta’lim sohasidagi vakolatlari. Ta’limni boshqarish shakllari. Pedagog kasbining o‘ziga xos xususiyatlari. Pedagogning kommunikativ qobiliyati, uning vositalari. Ta’lim jarayonini tashkil etishda bolalarning gender xususiyatlarini hisobga olish. Ta’lim jarayonini tashkil etish va guruhning neyropedagogik relyefi. Pedagogik jarayonni yaratish mantig‘i va sharoitlari. Ta’lim sohasida attestatsiya. Ta’lim muassasasida ilg‘or pedagogik tajribani o‘rganish va undan foydalanish. Inklyuziv ta’lim.

Pedagogika tarixi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta’lim-tarbiya jarayonida milliy meros, pedagogik qadriyatlardan samarali foydalanishning ijtimoiy ahamiyati haqida. Ta’lim-tarbiya va pedagogik ta’limotlar tarixini davrlashtirish muammolari. Eng qadimgi davrlardagi ta’lim-tarbiya va pedagogik fikrlar. Qadimgi Rimda pedagogik g‘oyalari rivoji. Qadimgi Sparta va Afina maktablarida ta’lim-tarbiya. Rus pedagog-olimlarining pedagogik g‘oyalari. Y.A.Komenskiyning pedagogik nazariyasi. L.N.Tolstoyning pedagogik qarashlari. K.D.Ushinskiyning didaktikning didaktik qarashlari. XIX asrning oxiri – XX asrda G‘arbiy Evropa, AQSH, Rossiyada reformatorlik pedagogikasi va uning asosiy yo‘nalishlari. Sharq Uyg‘onish davrida ta’limiy-axloqiy fikrlar rivoji. Zahiriddin Muhammad Boburning pedagogik fikrlari. Alisher Navoiyning asarlarida tarbiya va insonparvarlik masalalari. Jaloliddin Davoniyning axloqiy qarashlari. “Axloqiy Jaloliy” asarining pedagogik fikrlar rivojidagi o‘rni. Buxoro amirligi, Qo‘qon va Xiva xonliklarida ta’lim-tarbiya. Ijtimoiy hayotning ta’lim-tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar rivojiga ta’siri. Maktab va madrasalarda ta’lim mazmuni. Qizlar maktabi va unda ta’lim mazmuni. Anbar Otinning pedagogik fikrlari. Munis Xorazmiyning “Savodi ta’lim” asari – husnixatga doir dastlabki qo‘llanma sifatida. Qoshg‘ariyning “Odob as-solihin” asari – yuksak ma’naviy-axloqiy sifatlarni yorituvchi manba. Musulmon maktablari va unda ta’lim-tarbiya mazmuni. Kaykovusning “Qobusnama” asarining tarbiyaviy ahamiyati. Ijtimoiy xayotning ta’lim-tarbiya,maktab va pedagogic fikrlar rivojiga ta’siri. Turkistonda jadidchilik xarakati. Iogann Genrix Pestolotskiyning didaktika va boshlang‘ich ta’lim metodikasiga qo‘sghan hissasi. V.Lamonosov va uning rus pedagogikasi va maktablar rivojidagi o‘rni. Abu Nosir Farobiyning pedagogik qarashlari. Mirzo Ulug‘bekning pedagogik g‘oyalari va ta’lim rivojidagi xizmatlari. Abdurahmon Jomiyning ta’limiy-axloqiy qarashlari. O‘zbekiston

Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov asarlarida ta’lim-tarbiya to‘g‘risida ilgari surilgan g‘oyalar. So‘fiylik ta’limotining ma’naviy hayotga ta’siri. V.P.Nalivkinning ta’lim rivojidagi xizmati. Iogann Genrix Pestalotsiyning didaktika va boshlang‘ich ta’lim metodikasiga qo‘sghan hissasi. Yusuf Xos Xojibning “Qutadg‘u bilik” asari – pandnomma asar sifatida. XIX asrning 2-yarmida Turkistonda maktablar tizimi. Chor Rossiyasining ta’lim siyosati. Mahmudxo‘ja Behbudiyning yangi usul maktablarini tashkil etishdagi ma’rifatparvarlik xizmatlari. Munavvar Qorining yangi usul maktablarini tashkil etishdagi ma’rifatparvarlik xizmatlari. Abdulla Avloniyning yangi usul maktablarini tashkil etishdagi ma’rifatparvarlik xizmatlari. Abduqodir Shakuriyning yangi usul maktablarini tashkil etishdagi ma’rifatparvarlik xizmatlari. Turkiston o‘lkasida ta’lim siyosati (1917-1924). 1924-1945-yillarda ta’lim va pedagogika fani. 1945-1990-yillarda O‘zbekistonda ta’lim tizimi va pedagogika fani rivoji. Adolf Distervergning rivojlantiruvchi ta’lim nazariyasi. Rus pedagog olimlarining ma’rifiy, ma’naviy-axloqiy g‘oyalari. Chor Rossiyasining ta’lim siyosati. Munavvar Qori Abdurashidxonovning pedagogik qarashlari. Siddiq Rajabovning pedagogika fani rivojiga qo‘sghan xissasi. Mustaqillik yillarida pedagogik fikrlar rivojining asosiy yo‘nalishlari. O‘zbekiston Respublikasi rivojining yangi bosqichida ta’lim-tarbiya islohotlari: Sh.M.Mirziyoyevning ta’lim-tarbiyaga oid fikrlari. Sh.M.Mirziyoyev asarlarida jamiyat rivojining ma’naviy-axloqiy negizlari va yuksak ma’naviyatli shaxsni shakllantirishga doir konseptual fikrlarning ifoda etilishi. XX asr jahon ta’lim tizimidagi global tendensiyalar. Jahon ta’lim modellari.

IJTIMOIY PEDAGOGIKA

Ijtimoiy pedagogika ijtimoiy zaruriyat sifatida. Uning asosiy muammolari. Ijtimoiy pedagogikaning maqsadi, vazifalari, obekti va predmeti. Ijtimoiy pedagogika asoslari. Ijtimoiy pedagogika alohida fan va amaliy faoliyat sohasi sifatida. Bolaning sosiumda rivojlanishi. Shaxsning ijtimoiylashuvi. Odob-axloq hayotiy me’yorlar sifatida. Ijtimoiy pedagogikada “me’yordan og‘ish” tushunchasi. Ijtimoiy pedagogik jarayon. Markaziy Osiyo xalqlarining ijtimoiy-pedagogik an’analari. Jamiyatning milliy mafkuraviy ongliligi ijtimoiy-pedagogik hodisa sifatida. Ijtimoiy pedagog va uning kasbiy faoliyati. Ijtimoiy pedagog ta’lim tizimida. Ijtimoiy pedagogning bolalar va o‘smirlar orasidagi reabilitasjon xizmati modeli va mexanizmi. Deviant bolalar va o‘smirlar. Ularni reabilitasiya qilish yo‘llari. Ijtimoiy pedagog faoliyati metodikasi va texnologiyasi.

Respublikamizda amalga oshirilgan islohotlar va ularning ijtimoiy hayotga ta’siri. Jamiyatning ijtimoiy tuzilmasi. Hozirgi vaqtda ijtimoiy pedagogika va pedagogik sosiologiya faniga zaruriyat va uning ahamiyati.

Rahmdillik va xayr-sahovat ijtimoiy-pedagogik faoliyatning madaniy-tarixiy an’anasi sifatida. O‘zbekistonda xayr-sahovatning rivojlanish bosqichlari. O‘zbekistonda “ijtimoiy pedagog” kasbining paydo bo‘lishi.

Antik davrda ijtimoiy pedagogikaning rivojlanishi. XIV –XV asrlarda ijtimoiy-pedagogik g‘oyalarning rivojlanishi. XVI-XIX asrlarda ijtimoiy-pedagogik faoliyat. XX asrning 20 yillarida ijtimoiy-pedagogik g‘oyalar va pedagogik faoliyatning tubdan yangilanishi. Ijtimoiy pedagogika rivojlanishining zamонавиј bosqichi.

«Avesto» va adabiy manbalarda ijtimoiy-pedagogik g‘oyalari. O‘rta asrlarda O‘rta Osiyo qomusiy olimlarining ijtimoiy-pedagogik g‘oyalari. XVIII-XIX asr ma’rifatparvarlarining ijtimoiy-pedagogik qarashlari. XX asr boshlarida ijtimoiy-pedagogik faoliyat. II jahon urushi yillarida ijtimoiy-pedagogik faoliyat.

O‘zbek xalq pedagogikasida ta’lim-tarbiya masalasining ijtimoiy xarakteri. O‘zbek etnografiyasida mukammal inson modeli. Islom – monoteistik din. Hadislarda ijtimoiy-pedagogik fikrlarning yoritilishi.

Ijtimoiy pedagogikaning tadqiqot obekti va ijtimoiy pedagogika rivojlanishi tarixidan. Ijtimoiy pedagogika va ijtimoiy ish. Ijtimoiylashuv – ijtimoiy-pedagogik jarayon.

Me’yor va me’yordan og‘ish: tushuncha va tavsif. Me’yordan og‘ish turlari. Me’yordan og‘ish nazariyasi.

Ijtimoiy pedagog kasbiy faoliyatining o‘ziga xosligi. Kasbiy faoliyatning tuzilishi. Ijtimoiy pedagog kasbiy faoliyat subekti sifatida: shaxsiy tavsif va kasbiy bilimdonlik. Ijtimoiy pedagogning kasbiy faoliyati sohalari.

“Tamoyil” va “qoida” tushunchasi. Tabiat bilan uyg‘unlik tamoyili. Madaniyat bilan uyg‘unlik tamoyili. Insonparvarlik tamoyili.

Pedagogika va ijtimoiy pedagogika kategoriyalari. Ijtimoiy-pedagogik faoliyat. Ijtimoiy ta’lim. Tarbiya va ijtimoiy tarbiya.

Ijtimoiylashuvga ta’sir etuvchi omillar. Tashqi va ichki omillar. Mikro, mezo va makro omillar. Shaxs ijtimoiylashuviga siyosiy, iqtisodiy, ekologik omillarning ta’siri.

Bolaning ilk ijtimoiylashuv davri. Bolaning ijtioylashuvida oila, ta’limtarbiya muassasalari, madaniyat, din va mahallaning o‘rni.

Mahallaning paydo bo‘lishi tarixidan. Mahallaning ijtimoiy-pedagogik o‘rni. Mahallada qadriyatlar va ijtimoiy ong translyasiyasi.

Ilmiy tadqiqotning mohiyati. Ijtimoiy pedagogika va pedagogik sosiologiyada ilmiy tadqiqotning vazifalari. Ijtimoiy-pedagogik tadqiqotning bosqichlari va metodlari.

O‘smyrlilik yoshida deviasiyaning yuzaga kelishi shart-sharoitlari. Deviasiya turlari. O‘smyrlarda deviant xulq-atvorming kelib chiqishi sabablari. Deviasiya konsepsiyalari.

Metodika tushunchasi. Ijtimoiy-pedagogik faoliyat metodlari mohiyati. Ijtimoiy-pedagogik texnologiyalar.

Mustaqillik yillarida ijtimoiy-reabilitasion muassasalarning tubdan yangilanishi. O‘zbekistonda SOS – bolalar mahallasining faoliyati.

Ijtimoiy pedagogik nuqtayi nazardan oila turlari. Oilaning ijtimoiy vazifalari. Ijtimoiy pedagogning oilalar bilan olib boradigan ishlari shakl, metod va vositalari.

Vasiylik va homiylik tushunchasi. Vasiylik va homiylik tarixidan. Vasiylik va homiylikning me’yoriy-huquqiy hujjatlarda aks ettirilishi. O‘zbekiston va chet elarda vasiylik va homiylik.

Yetimlikning kelib chiqishi sabablari. Yetim bolalarning psixologiyasi. Bola asrab olgan oila bilan olib boriladigan ijtimoiy-pedagogik faoliyat.

Chaqaloqlik davrida ijtimoiylashuv moslashuv. Go‘daklik davrida ijtimoiy moslashuvning o‘ziga xosliklari. Maktabgacha ta’lim muassasalarda olib boriladigan ijtimoiy-pedagogik faoliyat.

Umumiy o'rta ta'lim mакtablarining ijtimoiy funksiyalari. Maktabdan tashqari vaqtini to'g'ri tashkil etishda ijtimoiy pedagogning o'rni. Tengqurlar jamoasi va bolalar submadaniyati. Maktabda pedagogik jihatdan me'yordan og'ishganlar bilan ijtimoiy pedagogning olib boradigan ishlari shakl, metod va vositalari. Ijtimoiy pedagogning o'quvchilarni kasb tanlashga yo'naltirishga oid vazifalari.

Spiritli ichimliklar iste'mol qilish muammosi. Bolalarning spiritli ichimliklar ichishining sabab va oqibatlari. Bolalardagi spiritli ichimlikka munosabat darjasи va har bir darajada ijtimoiy pedagogning yordam berish shakllari.

Giyohvandlik muammosi. Narkotik moddalarining turlari va tasnifi. O'smirlar giyohvandligining sabablari va oqibatlari. Bolalarda giyohvandlikka munosabat darjasи va har bir darajada ijtimoiy pedagogning yordam berish shakllari.

Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi muammosi. Voyaga yetmagan xuquqbuzarlar uchun maxsus o'quv tarbiyaviy muassasa. Voyaga yetmagan jazoga xukm qilinganlarning yosh bilan bog'liq o'ziga xosliklari, hamda tarbiyaviy muassasalarda joylashuvi.

Ijtimoiy - pedagogik texnologiya tushunchasi va uning mohiyati. Naza-riy, amaliy va tadqiqotchilik ijtimoiy - pedagogik texnologiyalar. Ijti-moiy pedagogning amaliy faoliyati va texnologiyalarning o'zaro aloqalari. Ijtimoiy - pedagogik texnologiyalar tasnifi. Tasnifning asoslari va me-zonlari. Umumiy va xususmy ijtimoiy - pedagogik texnologiyalar. Diag-nostik, diagnostik-prognostik, ekspertbaholash ijtimoiy - pedagogik texnologiyalar.

Bosqichlilik - ijtimoiy - pedagogik texnologiya strukturasi va uni amalgalashish jarayonining asosiy xususiyati sifatida. Ijtimoiy - pedagogik texnologiyani tanlash jamiyatning ijtimoiy buyurtmasi. Ta'lim muassasasining yo'nalishi, ijtimoiy-pedagogik vazifalar bilan bog'liqligi. Ijtimoiy-pedagogik tashhis, istiqbollash, rejalashtirish, boshqarish va baholash.

Ta'lim muassasida ijtimoiy - pedagogik ishni tashkil etish. Ta'lim muassasasi ijtimoiy - pedagogik xizmatining bolani ijtimoiylashtirish (sosializasiya), uni tarbiyalash, sog'lomlashtirish, himoyalash, o'z -o'zini rea-lizasiyalashni rivojlantira boshlash muammolariga yo'naltirilganligi.

Ijtimoiy pedagogning kasbiy maqomi yangi ijtimoiy – iqtisodiy, huquqiy va psixologik omillar bilan belgilanganligi. Ta'lim muassasida ijtimoiy pedagog faoliyatining boshqaruv, tarbiyaviy va tashkiliy ji-hatlari. Ta'lim muassasasi, oila va ijtimoiy muhit bilan ishslash ijtimoiy pedagog faoliyatining asosiy yo'nalishlari.

Ijtimoiy pedagogning kasbiy faoliyati vositalari uning tashhis, boshqaruv va muvofiqlashtirish ishlari bilan belgilanganligi. Dastlabki tanishish – bilish vazifalari. Maktabgacha muassasaning tayanch muammolari: dastlabki ijtimoiylashtirish, individual qobiliyatlarni rivojlantirish, motivasiya, moslashish, xulq uslubini shakllantirish va sh.k. ni hal etish. Ijtimoiy pedagogning psixologik, pedagogik va tibbiy yo'nalishdagi markazlar bilan tashqi aloqalari. Namunaviy texnologik xaritani uning bosqichlari tavsifini yaratish. Ijtimoiy-pedagogik ishning asosiy metodlari: loyihalash, rejalashtirish, modellashtirish, dasturlash. Tashhis va istiqbollash vositalari, so'rovnomalar, kuzatuv va tahlil hujjatlari blankalari.

Ishning asosiy yo‘nalishlari: mazkur toifadagi bolalarni aniqlash va guruh yoki yakka tartibda ishni tashkil etish. Tashkiliy ijtimoiy pedagogik texnologiyalar: 1) tarbiyasi og‘ir bolalar haqida ma’lumotlar bankini shakllantirish; 2) bolaning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishi muammolarini tashhislash; 3) bola, guruh, jamiyat bilan ijtimoiy – pedagogik ishlar dasturini tuzish va tasdiqlash; 4) dasturning bajarilishi sharoit-larini ta’minlash; 5) maslahat xizmati; 6) ijtimoiy pedagogning idoralararo aloqalari.

Oila – ijtimoiylashtirishning bosh instituti. Oilada nomaqbullik ko‘rsatkichlari va bola tarbiyasiga salbiy ta’siri. Bola – ijtimoiy pedagogning sa’yharakatlari markazi. Nomaqbul oila bilin ishslash texnologiyasi darajalari: profilaktika, tashhislash, reabilitasiyalash. Ota – onalarga pedagogik ma’rifat tarqatish; ota-onalar va mutaxassislarning ixtiyoriy hamkoligi; erkin tarbiyalash targ‘iboti. Diagnostik texnologiya tamoyillari: obektivlik, axborot manbalarining ko‘p sonliligi, kliyentosentrizm, konfidensiallik (maxfiylik). Diagnostik texnoloiya metodlari: shkalalashtirish, loyihalash va assosiativ loyihalash, kartochkali, ekspressiv metodikalar, ijtimoiy biografiyalar metodi, hujjatlar tahlili. Oilaga ijtimoiy-pedagogik yordam turkumi (sikli). Reabilitasiya ishi darajalari:

- individual (maslahat texnologiyalari, xat-murojaat, ijtimoiy patronaj);
- guruhli (suhbat, ma’ruza, disput, yig‘ilish, diskussiyalar, trening); umumiylar (suhbat, ma’ruza. Ommaviy aksiyalar - hasharlar, sayohatlar, bayramlar uyushtirish).

Keyingi o‘n yillikda butun dunyoda imkoniyatlari cheklangan bolalar soni ortganligi. «Izolyasiyadan integrasiyaga» muammosiga zamonaviy yondashuv. Ijtimoiy pedagogning maqsadi – oilaning vaziyatli – rolli moslashganligini orttirish. Ijtimoiy-rolli moslashganlik ko‘rsatkichlari: bolaga munosabat; oilaning reabilitasion faolligi; oilaning reabilitasion madaniyati. Oila bilan o‘zaro hamkorlikning texnologik modellari: yordam; psixologik, krizisintervent, muammoliyo‘naltirilgan.

OILA PEDAGOGIKASI

Oila pedagogikasi fanining predmeti, maqsad va vazifa-lari. Oila pedagogikasining boshqa fanlar bilan bog‘liqligi. Oila pedagogikasining ilmiytadqiqot metodlari.

Qadimgi Yunon va Rim mutafakkirlarining oila tarbiyasi haqidagi qarashlari.

Yevropa Uyg‘onish davri mutafakkirlari asarlarida oila tar-biyasining aks etishi. Yan. Amos Komenskiy oilada tarbiyaning o‘rni haqida. Ma’rifatparvar mutafakkirlarning oila tarbiyasiga oid fikrlari. Rus pedagoglarining oila pedagogikasiga oid qarashlari.

Qadimgi davrlarda O‘rta Osiyoda oila tarbiyasiga oid qarashlar. «Qur’oni Karim» va hadislar oila tarbiyasining muhim manbalari sifatida. O‘rta asrlarda oila pedagogikasiga oid fikrlar. Ma’rifatparvar o‘zbek pedagog-olimlari oila tarbiyasi xususida. XX asrda oila tarbiyasiga doir yondashuvlar va ularning mohiyati.

Mustaqillik yillarida oila tarbiyasi masalasi.

Oila – mustaqillik yillarida davlat siyosatidagi ustivor masala sifatida. Oilada yoshlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash. Oilada yoshlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlashda oila va jamoatchilik hamkorligi.

Oila tushunchasi. Oilaning vazifalari: jamiyatga munosabati bo‘yicha oilaning vazifalari; odamlarga munosabati bo‘yicha oilaning vazifalari.

Oilanning tarixiy turlari. Hozirgi vaqtda oilalarning xilma-xil shakllari. O‘zaro munosabatlar xarakteri bo‘yicha oilalarning turlari.

Zamonaviy oilalarning o‘ziga xosliklari. Zamonaviy oilalar rivojining ijtimoiy xususiyatlari. Zamonaviy oilalar rivojining psixologik xususiyatlari.

Zamonaviy oilalar rivojining pedagogik xususiyatlari.

Oila tarbiyasi yaxlit tizim sifatida. Oilada axloqiy tarbiya. Oilada bolalarni estetik ruhda tarbiyalash. Oilada jismoniy tarbiyani yo‘lga qo‘yish. Oilaning bolalarning iqtisodiy savodxonligini oshirishdagi o‘rni.

Oilada bolalarni tarbiyalash metodlari. Ota-onalarning tarbiya metodlarini tanlash va qo‘llash shart-sharoitlari. Oilada bolalani tarbiyalash shakllari. Oilada bolalarni tarbiyalash vositalari.

Muloqot tushunchasi. Oilada muloqot uslublari va ularning o‘ziga xosliklari.

Avtoritar uslub. Liberal uslub. Demokratik uslub.

Ta’lim muassasasi, o‘qituvchilar, sinf(guruh) rahbarining o‘quvchilarning otaonalari bilan olib boradigan ishlari shakl va metodlari haqida tushuncha. Pedagogik lektoriyalar. Sinf (guruh)lar bo‘yicha pedagogik majburiy ta’lim. Yillik yakuniy ilmiy-amaliy konferensiya. Ochiq eshiklar kuni. Sinf(guruh) ota-onalar majlisi.

Pedagogik maslahat.

XALQ PEDAGOGIKASI

Xalq pedagogikasi fanining maqsadi, vazifalari, mazmuni, xalq pedagogikasining didaktik imkoniyatlarini o‘quv-tarbiyaviy jarayonga tadbiq etish, xalq pedagogikasida oila va oilaviy tarbiyaning aks etishi, xalq pedagogikasida yoshlarni tarbiyalashning metod, usul va vositalari, xalq pedagogikasi va o‘zbek xalq og‘zaki ijodi, xalq pedagogikasi va xalq og‘zaki ijodida dostonlar, xalq pedagogikasida milliy urf-odatlar, an'analar, udumlar, marosimlarning tarbiya vositasi sifatidagi o‘rni, xalq pedagogikasida diniy ta’limotlar, xalq pedagogikasida xalq amaliy san’ati va madaniyatining o‘rni, o‘zbek xalqining muomala madaniyati, ahloqiy me’yorlari, turmush kechirish tartib-qoidalarini o‘rganishning tarbiyaviy ahamiyati

Xalq pedagogikasining pedagogika tizimidagi o‘rni. Kursning predmeti, obekti, maqsadi va vazifalari. Xalq pedagogikasining boshqa pedagogika fanlaridan farqi. Mazkur fanni o‘rganishning dolzarbligi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ta’limning milliy yo‘nalishiga qo‘yilgan talablar.

Xalq pedagogikasining tarbiyaviy ahamiyati. Xalq pedagogikasida bola - ta’lim va tarbiya obekti va subekti sifatida. Umumiyo‘zbek ta’lim tizimi, AL va KHKlarida xalq pedagogikasi g‘oyalari va tarbiya tajribasidan foydalanish imkoniyatlari.

Oilada milliy va umuminsoniy qadriyatlar. Xalq pedagogikasida oila obrazi. Sevgi va oilaviy munosabatlar. Bola tarbiyasida oilaning muhim ahamiyat kasb etishi. Ota-onsa tarbiyachi sifatida. Oilada buvilar va buvalarning tarbiyadagi o‘rni. O‘zbek xalq pedagogikasida oila va oilaviy tarbiya haqidagi tasavvurlarning ifodalanishi. Xalq pedagogikasida yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash.

Xalq pedagogikasida tushuntirish, namuna ko'rsatish, ogohlantirish, iltimos qilish, koyish va boshqa bir qator tarbiyalash metodlarining mavjudligi va ulardan yoshlarni tarbiyalashda foydalanish yo'llari. Xalq pedagogikasi va avlodlar vorisligi.

O'zbek xalqining yozma va og'zaki ijodi. Folklor va folkloristika. Xalq og'zaki ijodi xususiyatlari va janrlari. Xalq prozasi va poyeziyasi. qo'shiqlar, maqol va matallar. Afsonalar va rivoyatlar, asotirlar va masallar. Xalq ertaklarining o'ziga xos xususiyatlari. «Avesto» yovuzlik ustidan adolat, ezgulik g'alabasi ramzi.

Dostonlarning o'ziga xos xususiyatlari. Lirik, epik, dramatik dostonlar. Qahramonlik dostonlari, jangnomma, tarixiy, romantik kitobiy dostonlar. Dostonlarning tarbiyaviy ahamiyati. Dostonlarda qahramonlik, mardlik, vatanparvarlik g'oyalaring aks etishi.

Milliy urf-odatlar, an'analar, marosimlarning mohiyati va tarbiyaviy ahamiyati. Xalq o'yinlari va o'yinchoqlar. Oilaviy an'analar. Tarbiyaviy an'analar. Bayramlar. Xalq sayllari. Davlat bayramlari, diniy bayramlar. Xalq bayramlari turlari. Milliy urf-odatlar va an'analarning e'zozlanishi, avlodlarga me'ros qoldirilishi va ularning barqarorligining ta'minlanishi.

Diniy bag'rikenglik. Diniy adabiyotlar – pedagogik fikrlar manbai sifatida. Diniy fanatizm, fundamentalizm, terrorizm xavf-xatari – diniy savodsizlik oqibati ekanligi. Diniy ta'limot, hadislarning tarbiyaviy ahamiyati.

Xalq amaliy san'ati va hunarmandchiligi. Tarixiy yodgorliklar va milliy me'morchilik. Milliy musiqa va qo'shiqchilik san'ati, xalq raqs san'ati va teatr. Dorbozlik. Qo'g'irchoq teatri, uning tarixi. Tasviriy san'at. Xalq amaliy san'ati, tasviriy san'at, musiqa san'ati yosh avlodni estetik tarbiyalashda muhim omil sifatida.

Farzand tarbiyasida mahallaning o'rni. Sof insoniy fazilatlar: sahiylik, xushmuomalalik, olıyanoblik, halollik, insonparvarlik va b. Barcha ijobiy xislatlarni bola tarbiyasiga singdirish.

KOMPARATIVISTIK PEDAGOGIKA

Komparativistik pedagogika fani haqida tushuncha. Komparativistik pedagogikaning rivojlanish bosqichlari, qiyosiy pedagogika fani rivojlanishida xalqaro tashkilotlar va ularning faoliyati, jahon mamlakatlari ta'limi taraqqiyoti masalalari, Yevropa mamlakatlarida ta'lim-tarbiya masalalarining olib borilishi va qiyosiy tahlil, Osiyo mamlakatlarida ta'lim-tarbiya jarayonining o'ziga xos xususiyatlari va ularning qiyosiy tahlili, rivojlangan mamlakatlarda ta'lim-tarbiya tizimi va qiyosiy tahlil, Markaziy Osiyo davlatlarida ta'lim-tarbiyaning o'ziga xosliklari.

Komparativistik pedagogika tushunchasi. Komparativistik pedagogika fanining maqsad va vazifalari. Komparativistik pedagogika fanining tadqiqot metodlari.

YUNISEF xalqaro tashkilotlarining vazifalari va ta'lim-tarbiya jarayonlari yuksalishidagi o'rni.

Ta'limni isloh qilishda o'quv dasturlarining ahamiyati. Jahon mamlakatlarida ta'limni integratsiyalashtirish va kasbga yo'naltirish masalalari. Ta'limni differensiyalashtirish muammolari va maxsus maktablar faoliyati.

Germaniyada ta'lim-tarbiya jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlari. Fransiyada ta'lim siyosatining olib borilishi. Angliya ta'lim tizimi.

Yaponiya ta'lim tizimi va unga dahldor masalalarining olib borilishi. Koreya va Xitoyda ta'lim-tarbiya jarayonlari. Hindiston ta'lim tizimi.

AQSH va O'zbekiston ta'lim tizimining qiyosiy tahlili . Rossiya va O'zbekistonda pedagogika fani taraqqiyotidagi o'ziga xosliklar: umumiylilik va tafovut.

Qozog'istonda pedagogika fani rivojidagi o'ziga xos jihatlar. Qirg'iziston va O'zbekiston ta'lim tizimining qiyosiy tahlili. Tojikiston va Turkmanistonda pedagogika fani rivoji.

MAKTABGACHA VA KORREKSION PEDAGOGIKA ASOSLARI

Maktabgacha pedagogika asoslарining mavzu bahsi va ilmiy-tadqiqot metodlari. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar rivojlanishining umumiylilik qonuniylatlari. Maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyachisi va demokratik jamiyatda unga qo'yiladigan talablar. Maktabgacha ta'lim muassasasida tarbiya mazmuni va metodikasi. Maktabgacha ta'lim muassasasida o'yin faoliyati va uni tashkil etish. Maktabgacha ta'lim muassasasida pedagogik jarayonni tashkil etish. Maktabgacha ta'lim muassasasida ta'lim-tarbiya ishlarini rejalashdirish va hisobga olish. Maktabgacha ta'lim muassasasi bilan umumiylilik o'rta ta'lim maktabi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik. Maktabgacha ta'lim muassasasi va oila hamkorligi. Korreksion pedagogika fan sifatida. Rivojlanishidagi nuqsonlarni klassifikatsiyalash, ularning sabablari va omillari. Bola rivojlanishidagi nuqsonlarni diagnostika qilishda korreksion ishlar tamoyillari va metodlari. Aqliy va psixik rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan o'quvchilarni korreksion o'qitish. Nutqida nuqson bo'lgan o'quvchilarni korreksion o'qitish. Eshitish qobiliyati buzilgan o'quvchilarni korreksion o'qitish. Ko'rish qobiliyati buzilgan o'quvchilarni korreksion o'qitish. Maxsus muassasalarda korreksion pedagogik ishlar ta'lim jarayonini asosi sifatida. Tarbiyasi og'ir bolalar bilan olib boriladigan korreksion ishlar.

Maktabgacha pedagogika asoslari va uning mohiyati. Maktabgacha pedagogikaning asosiy kategoriyalari. Maktabgacha pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqasi. Maktabgacha pedagogikaning ilmiy-tadqiqot metodlari.

Bola shaxsining shakllanishi. O'sish va rivojlanish. Bola shaxsining shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar. Maktabgacha ta'lim yosh davrlari va ularning o'ziga xosliklari.

Maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyachisi va unga qo'yiladigan talablar. Maktabgacha ta'lim muassasasi xodimlarini tayyorlash tizimi.

Maktabgacha ta'lim muassasasida tarbiyaning maqsadi, vazifalari. Tarbiyaning umumiylilik metodlari. Jismoniy tarbiya. Aqliy tarbiya. Axloqiy tarbiya. Mehnat tarbiyasi. Estetik tarbiya.

O'yin bolalar faoliyatining asosiy turi. O'yinning o'ziga xosligi va tasnifi. Ijodiy o'yinlar. Roli o'yinlar. Sahnalashtiruvchi o'yinlar. Didaktik o'yinlar. O'yinchoq va uning ta'limiy-tarbiyaviy ahamiyati.

Maktabgacha ta'lim muassasasida bolalar hayotini tashkil etish. Bolalar jamoasini shakllantirish. Bolalarga individual yondashish usullari. Kunning birinchi va ikkinchi yarmida bolalar hayotini tashkil etish.

Maktabgacha ta’lim muassasasida pedagogik jarayonni rejalashtirish. Ta’limtarbiya ishlarini hisobga olish.

Bolalarni maktabga tayyorlash vazifalari. Tayyorlov guruhida olib boriladigan ishlar. Maktabga ta’lim muassasasi bilan umumiyo‘rtta ta’lim muassasasi o‘rtasidagi aloqa shakllari.

Bolalar tarbiyasida oilaning roli. Maktabgacha ta’lim muassasasining oila bilan olib boradigan ish shaklalri.

Korreksion-pedagogikaning paydo bo‘lishi, tashkil topishi va rivojlanishi. Korreksion pedagogikaning predmeti, vazifalari va mohiyati. Korreksion pedagogikaning asosiy vazifalari. Korreksion pedagogikaning kategoriyalari.

Anomal o‘quvchilar bilan olib boriladigan korreksion ishlarning asosiy yo‘nalishlari. Rivojlanishidagi nuqsonlarni klassifikasiyalash, ularning sabablari va omillari.

Bola rivojlanishidagi nuqsonlarni diagnostika qilishda korreksion ishlar tamoyillari. Rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni psixologik-pedagogik tekshirish metodlari.

Psixik rivojlanishdan ortda qoluvchi bolalarning psixologik-pedagogik tavsifnomalari. Psixik rivojlanishi ortda qolgan bolalar bilan korreksion ishlar olib borishning xususiyatlari. Aqli zaiflikning psixologik-pedagogik xususiyatlari, uning paydo bo‘lishi sabablari. Aqli zaif bolalar bilan olib boriladigan korreksion ishlar.

Nutqiy buzilishlar sabablari va ularning turlari. O‘quvchilarning nutqi buzilishini psixologik-pedagogik tuzatish. Nutqiy buzilishi bo‘lgan bolalarning psixologik-pedagogik xususiyatlari.

Eshitish qobiliyatining buzilishi sabablari, ularni turlarga ajratish. Eshitish qobiliyati buzilgan bolalarni ommaviy, umumiyo‘rtta ta’lim maktablarida korreksion o‘qitish.

Ko‘rish qobiliyati buzilishi turlari, ularning sabab va oqibatlari. Ko‘rish qobiliyati buzilgan bolalarni ommaviy, umumiyo‘rtta ta’lim maktablarida korreksion o‘qitish va tarbiyalash.

O‘quvchi yoshlarni mustaqil hayotga tayyorlash. Jamiyatda o‘z o‘rnini topishga, mehnat qilish ko‘nikma va malakalarni xosil qilish orqali ularga korreksion pedagogik ta’sir etish. Maktabni bitirgandan so‘ng ular to‘g‘risida ma’lumotlar yig‘ish.

Tarbiyasi og‘ir o‘smirlar bilan olib boriladigan pedkorreksion ishlar tahlili. O‘spirinlarda va o‘smirlarda xulq og‘ishganlikni yuzaga keltiruvchi ijtimoiy-pedagogik omillarni bartaraf etish usullari. Shaxslararo munosabatlar diagnostikasi va pedagogik korreksiyasi.

TARBIYAVIY ISHLAR METODIKASI

Tarbiya ijtimoiy-tarixiy jarayon sifatida; tarbiya paradigmalari, tarbiya jarayonida bola shaxsi; tarbiya metodikasi tushunchasi; insonparvarlik tarbiyasi tamoyillari, metod va texnologiyalari; tarbiya jarayonini tashkil etish va amalga oshirish yo‘llari; guruh (sinf) rahbarining faoliyati; bolalar jamoat tashkilotlari; tarbiya jarayonida ijtimoiy instittlarning o‘zaro hamkorligini yo‘lga qo‘yish.

Tarbiyaviy ish metodikasi fanining maqsad va vazifalari. Tarbiyaviy ish metodi-kasi fanining boshqa fanlar bilan aloqasi. Tarbiyaviy ish metodikasi fanining ilmiy-tadqiqot metodlari.

Tarbiya tushunchasi. Tarbiya – umuminsoniy qadriyat sifatida. Tarbiya paradigmalari. Tarbiya jarayonida bola shaxsi.

Insonparvarlik tarbiyasi: mazmun va mohiyati. Insonparvarlik tarbiyasi qonuniylatlari va tamoyillari. Insonparvarlik tarbiyasi metod va texnologiyalari.

Tarbiyaviy ish: tarkibi va tuzilishi. Ijtimoiy yo‘naltirilgan tarbiyaviy ish. Axloqiy tarbiyaviy ish. Estetik va jismoniy tarbiyaviy ish. Ekologik va mehnat tarbiyaviy ishi.

Guruh (sinf) rahbari va uning faoliyati mazmuni. Guruh (sinf) rahbarining vazifalari, huquq va majburiyatlari. Guruh (sinf) rahbarining o‘quvchilar bilan olib boradigan ish shakllari.

“Kamalak” bolalar va “Kamolot” yoshlar harakatining ish jarayonini o‘rganish. Yoshlar harakatining faoliyatini tahlil qilish.

Tarbiyaviy ishlar samaradorligini aniqlash mezonlari. Tarbiyaviy ishlar samaradorligini aniqlash metodikasi. Tashxislash natijalarini qayd etish.

PEDAGOGIKA FANLARINI O‘QITISH METODIKASI

Metodika tushunchasi. Pedagogik fanlarni o‘qitish metodikasining predmeti, maqsad va vazifalari. Pedagogik fanlarni o‘qitish metodika-sining boshqa fanlar bilan o‘zaro aloqasi.

Pedagogik fanlar tizimi va ularning o‘zaro aloqasi. Pedagogika sohalarining o‘ziga xos xususiyatlari.

Rivojlantiruvchi ta’limning asosiy konsepsiyalari tavsifi. Shaxsni rivojlantiruvchi ta’lim nazariyasini ishlab chiqishga zamonaviy yondashuvlar. Pedagogik fanlarni o‘qitish jarayoni mohiyati va uning vazifalari. Ta’lim jarayonining tuzilishi. O‘qitish va o‘qish jarayonlari tavsifi, o‘quv jarayonida ularning o‘zaro bog‘liqligi. O‘quvchilarning bilish faoliyati va uning tuzilishi.

